

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLAR ASOSIDA EKALOGIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH ASOSLARI

Abdurashidov Adxamjon Abduxamitovich

QDPI Falsafa fanlari doktori (PhD), v.b, professor

Suvanova Sevara Baxodir qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ssuvanova466@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar asosida ekalogik madaniyatini yuksaltirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, katta yosh, rivojlantiruvchi markazlar, bola, ekalogiya, madaniyat, ijtimoiy, pedagogika.

BASIS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF DEVELOPMENT CENTERS

Annotation. This article highlights the socio-pedagogical necessity of improving the ecological culture of older preschool children in preschool educational organizations based on development centers.

Keywords: Preschool education, older age, developmental centers, child, ecology, culture, social, pedagogy.

ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА БАЗЕ ЦЕНТРОВ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье подчеркивается социально-педагогическая необходимость повышения экологической культуры детей старшего дошкольного возраста в дошкольных образовательных организациях на базе центров развития.

Ключевые слова: Дошкольное образование, старший возраст, центры развития, ребенок, экология, культура, социальный, педагогика

Kirish. Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim, xususan maktabgacha ta’limni rivojlantirishdan kutilayotgan natija maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash, turlicha fikrlashni, intellektual

rivojlanishni, qiziqtirishni kuchaytirish va manaviy fazilatlarini hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha ta'lim nafaqat ta'lim jarayonining boshlanishi, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning qiziqishlari, qobiliyatlari va xulq-atvorini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘ngi yillarda Maktabgacha ta’limni rivojlantirishga doir bir qancha normativ- huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Tadqiqot mavzusining dolzarbligini qarorda keltirilgan vazifalar asoslaydi. Xususan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil 8-maydagi PQ-4312 sonli qarori bilan qabul qilingan —O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida qator ustuvor vazifalar keltirilgan: —Ta’lim tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich talimga tayyorligini, shuningdek ularning ijtimoiy, shaxsiy, xissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda bolalarga vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy tarixiy, madaniy qadryatlariga xurmat, atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Bolaning kelgusida o‘zini-o‘zi muvaffaqiyatini namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish[1]. O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonunining 4-moddasida —Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari:

har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi,

har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uyg‘unligi, bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzluksizligi, ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi, ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi, 29-moddada Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi: Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi bolani to‘laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi: bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini, bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlikni, bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlarini va an’analari bilan tanishtirishni, bolaning ijtimoiy moslashuvini, alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan pedagogik-tuzatish (korreksiyalash) va tibbiy-psixologik ishlar amalga oshirilishini, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashni ta’minlashi kerak. Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga (korreksiyalashga) hamda rehabilitatsiya qilishga muhtoj bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi

asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo‘yicha amalga oshirish belgilangan [2]. Tadqiqot ishimizda qonunlarda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantiruvchi markazlar asosida ekalogik madaniyatini yuksaltirish ularning ijtimoiy moslashuvida ekalogik madaniyatning muhimligini o‘rganish nazarda tutilgan. Bundan tashqari o‘quv-tarbiyaviy jarayonda tabiat bilan tanishtirish metodlarini takomillashtirishga etibor qaratilgan. Tadqiq etilayotgan muammo mohiyati—rivojlantiruvchi markazlar, —ekalogik madaniyat tushunchalari bilan bog‘liqligi uchun ularning turli manbalardagi talqini o‘rganildi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” vazirligining maktabgacha ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta‘lim tashkiloti guruhlarida beshta markaz tashkil etilgan. Bolalar hafta mobaynida oladigan bilim va ko‘nikmalarini har tomonlama mukammal va mustaqil egallay olishlari mumkin. Har bir yosh guruh xonasida:

Qurish-yasash va konstruksiyalash markazi;

Syujetli-rolli o‘yinlar markazi;

Til va nutq markazi;

Fan va tabiat markazi;

San‘at markazi tashkil etilgan bo‘lishi lozim.

Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o‘rin kasb etadi, chunki bola markazda erkin faoliyat olib boradi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Markazlarda bolalar bilan o‘yin orqali ishlash ularni zeriktirmaydi va qiziqishini yanada kuchaytiradi [3]. Bolaning rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o‘tishi, o‘sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Buyuk olimlar *Jan Piaje, Erikson, Lev Vigotskiy* nazariyalari bo‘yicha bolani o‘rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo‘lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo‘yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o‘yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

Muhokama va natijalar. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tamoyillari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar:

1. Eng avvalo markazlarda toza havo , toza joy, normal harorat va yorug‘ xonalarda tashkil etilishi lozim.

2. Har bir markaz bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo‘lishini ta‘minlash.

3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag‘batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Masalan jihozlarning yetarli bo‘lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham

4. Markazlardagi barcha jihoz va qo‘llanmalar bolaning bo‘yi yetadigan balandlikda bo‘lishi g‘amda bola ulardan bimalol foydalana oladigan bo‘lishi kerak.

5. Markazlardagi faoliyat davomida bolalar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni rag‘batlantirish (kichik guruhlar, juft bo‘lib va o‘yin o‘ynashlariga sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak.)

6. Bolalarda muassasaga tegishlilik, markazlarda jihozlarni o‘z joyida turishi, mavzular bo‘yicha taqsimlanishi zarur.

7. Markazlar mazmunli qismlarga bo‘linishi va uerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o‘yinchoqlar, tarqatmalar bo‘lishi

8. Markazga tegishli mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to‘siq bo‘lmaydigan qilib joylashtirilgan bo‘lishi, bola o‘ziga tegishli jihozlarni bemalol harakatlantira olishi, nogironlarga mos mebel ham bo‘lishi kerak.

9. Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo‘lishi kerak.

10. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash muhim.

11. Bolaning o‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish zarur.

12. Markazlardagi bolalar faoliyati samarasi kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko‘ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo‘yish.

Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi: o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish, tanqidiy fikrlash, tanlashni amalga oshirish, muammolarni hal eta olish, ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish, odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish. Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san‘at markazida bir bola qog‘oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog‘ozdan qaychi bilan o‘zi o‘ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar markazida bir bola to‘rtta yog‘och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birov esa yigirma besh bo‘lakli karton qog‘ozli tasvirni tuzishni ma‘qul ko‘radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so‘ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam beradi. Bunday yo‘l tutish tufayli bola yaxshi sur‘atda o‘sib-ulg‘ayishi mumkin. Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o‘ynaydilar, mashg‘ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta‘min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg‘ulot turlarini o‘zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg‘ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o‘rganadilar, o‘z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o‘z tanlovlarini amalga oshirishi,

muammolarni hal etishi, atrofda kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo‘yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 5 ta markazlar bo‘lib, ularning har birida izlanish va o‘yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi – bu bolalarga ilmiy-ijodiy fikrlashni rivojlantirish, texnik va matematik ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan didaktik markazdir. Bu markazda o‘qitishning asosiy maqsadi bolalarni konstruktiv yondoshuv orqali tanishtirish, ular o‘z qo‘llari bilan narsalar yaratish, dizayn qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bunday markazlarda o‘quvchilar ko‘pincha quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradilar:

1. **Konstruktiv faoliyat:** Bolalar turli materiallardan (lego, qurilish bloklari, karton, yog‘och, plastilin va boshqalar) foydalanib, obyektlarni yig‘ish va shakllantirishni o‘rganadilar. Bu ularga muhandislik asoslarini tushunishga yordam beradi.

2. **Matematika ko‘nikmalari:** Bolalar raqamlar, shakllar va geometrik tuzilmalar bilan ishlashni o‘rganadilar. Ular ko‘pincha bir necha elementlardan tuzilgan konstruksiyalarni yaratib, shakllarni tartibga solish, o‘lchovlar va nisbatlar haqida tasavvur hosil qiladilar.

3. **Ijodiy va tasavvur faoliyati:** Qurish va konstruktiv faoliyat bolalar uchun ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ular o‘z tasavvurlarini shakllantirish, yangi g‘oyalar yaratish va o‘z mahsulotlarini yaratishda ijodiy yondoshuvni o‘rganadilar.

4. **Muammoni hal qilish:** Konstruktiv faoliyatlar bolalarni mantiqiy fikrlash, tajriba qilish va xatolardan o‘rganishga o‘rgatadi. Bolalar turli vaziyatlarda muammolarni hal qilishga o‘rgatiladi, bu esa ularning umumiy intellektual qobiliyatlarini oshiradi.

Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi — bu bolalarga o‘zlarini turli rollarda tasavvur qilish va ijro etish orqali o‘rganish, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan didaktik vosita. Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi maktabgacha ta’limda bolalarning kreativligini oshirish, tilni rivojlantirish, hamkorlik va jamoa ishini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega.

Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazning vazifalari:

1. **Ijodiy yondashuvni rivojlantirish:** Bolalar tasavvur qilish va o‘zlarining turli rollarini o‘ynash orqali ijodiy fikrlashni o‘rgatish.

2. **Kommunikativ ko‘nikmalarni oshirish:** Bolalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganishadi.

3. **Empatiya va hamjihatlikni rivojlantirish:** Rollarda o‘ynash, turli xarakterlarni tasavvur qilish bolalarga boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishga yordam beradi.

4. **Emotsional rivojlanish:** Drama orqali bolalar o‘z emotsiyalarini tushunish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

5. **Muammolarni hal qilish:** Syujet-rolli o‘yinlar va dramatisatsiya bolalarni muammolarni hal qilish va turli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.

Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazda amalga oshiriladigan faoliyatlar:

- **Syujet-rolli o‘yinlar:** Bolalar turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini sinab ko‘rishadi. Masalan, do‘stlar, oila a‘zolari yoki kasblar (doktor, o‘qituvchi, sotuvchi) rollarini o‘ynash orqali ularning ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi.

- **Dramalashtirish:** Bolalar qisqacha hikoya yoki ertaklarni sahnalashtirib, o‘zlarining ifoda etish ko‘nikmalarini oshiradilar.

- **Interaktiv mashg‘ulotlar:** Musiqa, raqs, rang-barang materiallar yordamida bolalar o‘zlarini boshqacha tarzda ifodalashadi.

Bu markaz bolalarga nafaqat o‘yin va faoliyatni, balki jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil 8-maydagi PQ-4312 sonli qarori bilan qabul qilingan —O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” vazirligining maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi qarorlari.

4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2018

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlari. 802-sonli qaror. 2020-yil